



Tadcqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**28 FEVURAL
№25**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 14 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Abdunazarova Nargiza ADABIYOT DARSLARIDA ADABIY ISTILOHLARDAN FOYDALANISH.....	7
2. Usmonov Abdullajon TURKISTON TO'PLAMI TASHKIL ETILISHI TARIXI	9
3. Nishonova Yorqinoy Ruziboyevna SHARQDA XAMSANAVISLIK AN'ANASI	12



АДАБИЁТ

ADABIYOT DARSLARIDA ADABIY ISTILOHLARDAN FOYDALANISH

Abdunazarova Nargiza

Navoiy viloyati Navbahor tumani 3-umumtalim maktabi
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi
Tel (91) 338-94-86

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida adabiy istilohlardan foydalanish, o`quvchi nutqida adabiy istilohlarning xatosiz qo`llanilishiga e`tibor qaratish haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Istiloh, radif, raviy, g`azal, tuyuq, ruboiy kabi tushunchalarni izohlash.

Har bir fanning o`ziga xos qiziqarli tomoni bo`lgani kabi uning o`ziga xos qiyinchiligi ham mavjud. Bu narsa, ayniqsa, gumanitar fanlarda yaqqolroq namoyon bo`ladi. Chunki til ijtimoiy hodisa, demakki, jamiyatdagi o`zgarishlar gumanitar fanlarda bu narsa o`z aksini nisbatan tezroq topadi. Bugungi kun pedagogi, albatta, o`z sohasi, o`z fani uchun fidokor bo`lishi davr taqozosi ekan, ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi ham aynan shu xislatlarni o`zida mujassamlashtira olishi kerak. Qaysiki, o`quvchi fanga oid birliklarni qanchalik ko`p bilsa, u shunchalik o`z bilim doirasini kengaytirish uchun o`zida imkoniyatni namoyon qila oladi. Biz tubanda a adabiyot faniga oid istilohlar, ulardan samarali foydalanish, ularning o`quvchi nutqidan o`rin olishi uchun nimalar qilish kerakligi haqida tavsiyalarimizni o`rtoqlashmoqchimiz.

Adabiyot qadimdan har bir millat uchun ulug`lanib kelinayotgan ma`naviy meros hisoblanadi. Mumtoz adabiyot esa buning tub ildizi sanaladi.

O`quvchiga mumtoz adabiyotdan namuna o`rgatar ekanmiz, uning nima ekanligini, uning ohangga solish oson bo`lish uchun dastlabki tushunchani berishimiz lozim.

O`qituvchi nazariy ma`lumot sifatida, albatta, g`azal, qit`a, ruboiy, qasida, marsiya, raviy, radif, qofiya, nazira, sh`e`riy san`atlar kabi bir qancha ma`lumotlarni berishi kerak. Bu ma`lumotlarni eslash uchun turli didaktik o`yinlar yordamida buni mustahkamlab borishi kerak. Biz darslardagi quyidagi o`yinlardan foydalanishimiz albatta o`z natijasini beradi.

“Xotiramda saqlayman” mashqi

1- o`quvchi

2- o`quvchi

G`azal

G`azal, ruboiy

G`azal, ruboiy, tuyuq

G`azal, ruboiy, tuyuq, qasida

G`azal, ruboiy, tuyuq, qasida

G`azal, ruboiy, tuyuq, qasida,

marsiya

marsiya, tajnis

Bu o`yin o`quvchi adashgunicha davom etadi va g`olib o`quvchi oxirda qolgani hisoblanadi

“Adashganga yo`l ko`rsat “ o`yini

Bu o`yinda atamalar muvofiqlari tanlab qo`yiladi

1. Arabcha “sevish, sevilish”, yoki “xotin –qizlarga xushomad “ ma`nosini bildiruvchi so`z
MATLA`

2. G`azal ikki qismdan iborat: Maqta` va BEGONA BAYT

3. Maqta`dan oldingi bayt G`AZAL deb nomlanadi

4. Shakldosh so`zlarga asoslangan san`at TUYUQ deb nomalanadi

5. Shakldosh so`zlarga asoslangan janr TAJNIS deb nomlanadi?

Yoki oddiy “Zanjir” o`yini ham o`quvchida xotirani sinash va xotirada saqlash qobiliyatini shakllantiradi. Adabiyot darslarida adabiy istilohlarni doimiy ravishda takrorlab borish lozim.

Masalan “Muammoni yechaylik” o`yinida nutq madaniyati namunasi sifatida Biror bir chiroyli so`z yoki mavzuga oid so`z vertikal holatda joylashtiriladi. Ba har bir harfiga mos atamalar bilan qatorlar to`ldiriladi. Bu o`yin boshqotirmalardan farqi shundaki, bir harf bilan boshlanuvchi bir necha atamani ketma –ket keltirsa ham bo`ladi. Bunda tanlangan atama emas balki, ularning



miqdori ham sanaladi.

Masalan “Т” harfi bilan boshlanuvchi istilohlar: Tuyuq , tajnis. tarse`, tajohul orif., tashxis, tamsil, takrir, tazod, talmeh;

“М” harfi bilan boshlanuvchi atamalar: Muammo, murabba, musallas, mustasne, muxammas, masamman, muashshar, musoviyatarafayn;

“R” harfi bilan boshlanuvchi atamalar: raviy, radif, rad ul- matla`, ruboiy va hokazo

Dars jarayonlarida o`qituvchi mumtoz adabiyotdagi qaysi istilohlar bugungi zamonaviy adabiyotda ham qo`llanishini aytib o`tsa, foydadan xoli bo`lmaydi. Chunki O`zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: “Tarixni bilmay turib kelajakni qurib bo`lmaydi”. Ya`ni bizning shunchalar boy ma`naviy merosimiz borki, biz ularni tahlil va talqin qilishda yangi- yangi g`oyalarni targ`ib qilishimiz va shu g`oyalarni yangi avlodga singdirib borishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. Metodik qo`llanma. Sharafjon Sariyev. Toshkent “Yangi avlod” 2018-yil
2. Adabiyot 9-sinf Qozoqboy Yo`ldoshev. Valijon Qodirov.Jalolbek Yo`ldoshekov. Toshkent. “O`zbekiston” 2019



TURKISTON TO'PLAMI TASHKIL ETILISHI TARIXI

Usmonov Abdullajon

Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti 2-kurs magistranti
Telefon: +99 893 731 12 29 abdullajonusmonov575@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo tarixi bo'yicha muhim manba bo'lgan Turkiston to'plamining tashkil etilishi tarixi, tuzilishi va klassifikatsiyasi hamda Markaziy Osiyo tarixini o'rganishga ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston to'plami, Turkiston, V. M. Mejov, K. P. Kaufman, A. Semyonov, bibliografiya, tarix, etnologiya, arxeologiya, davriy nashrlar.

“Turkiston to'plami» (to'liq nomi “Turkiston o'lkasi va O'rta Osiyoga tegishli bo'lgan maqola va asarlar to'plami”) - Markaziy Osiyo va unga tutash bo'lgan hududlar tarixi, etnologiyasi, iqtisodi, botanikasi, arxeologiyasi, geologiyasi, xalqning turmushi va madaniyatiga oid noyob bibliografik asar. Markaziy Osiyo haqidagi alohida kitoblar, gazetalar va jurnallar qirqimlaridan tuzilgan bo'lib, jami 594 jilddan iborat. Uning 1867-1887-yillarga oid materiallarni o'z ichiga olgan 416-jildi bibliograf V. M. Mejov tomonidan tayyorlangan. U matbuotda Markaziy Osiyo haqida e'lon qilingan barcha ma'lumotlarni kiritishga harakat qilgan. To'plamni nashr etish ishlari 1888-yilda Turkiston ma'muriyati ko'rsatmasi bilan to'xtatilgan, faqat 1907-yilga kelib Toshkentda davom ettirildi. Turkiston to'plamini davomini tuzishga Markaziy Osiyo haqidagi adabiyotlar mutaxassisi N. V. Dmitrovskiy, etnograf A. A. Divayev, Turkiston xalq kutubxonasining muduri I. P. Zikov, sharqshunos olim Y. F. Bonchosmolovskiylar jalb etilgan. Ular hamkorligida (asosan gazeta materiallaridan iborat) to'plamning yana 127 jildi tuzilgan. Bibliograf va kutubxonashunos A. A. Semyonov 1911-1916-yillarda Turkiston to'plamining 48 ta jildini tuzdi. Bu to'plam tuzilishi jihatidan ilgarigilaridan yuqori turadi. Bibliograf Y. K. Betger tahriri ostida 1939-yilda Turkiston to'plamining so'nggi 3 jildi tuzilgan. Bu jildlar M. A. Terentyevning “Markaziy Osiyoning bosib olinishi tarixi” asari, uning xarita va rejalardan tashkil topgan. Turkiston to'plamining hamma jildlarida mualliflar tomonidan alifboli ko'rsatkichlar tuzilgan. Turkiston to'plami Markaziy Osiyoga doir ko'p tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. To'plamning barcha jildlari O'zbekiston milliy kutubxonasi fondida saqlanadi.

Turkiston to'plamining yaratilishi tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, uning yaratilish tarixi hozirgi kunda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasiga aylangan Turkiston jamoat kutubxonasining tashkil etilishi tarixi bilan bog'liq. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasi haqida ilmiy-tadqiqot ishlari faollashdi. Tyan-Shan tadqiqotchilari N. M. Prjevalskiy, I. V. Mushketov, P. P. Semenov va N. A. Severtsovalarning asarlari, N. A. Mayevaning Turkiston haqidagi ishlari va boshqalar nashr etilgan. Shu bilan birga davriy nashrlarda Markaziy Osiyo tarixi, etnografiyasi va madaniyatiga oid birinchi marta siyosiy va iqtisodiy mavzularda ko'plab maqolalar nashr etilgan.

Turkiston to'plamining asosiy qismi (1 dan 416 gacha) yuqorida keltirib o'tganimizdek, Sankt-Peterburgda taniqli rus bibliografi Vladimir Mejov rahbarligida 1867 yildan 1887 yilgacha tayyorlangan. Keyin to'plamning yangi jildlarini tayyorlash faqat 1907 yilda, Toshkentda boshlandi. 1910 yilga kelib bibliograf N. V. Dmitrov rahbarligi ostida 127 jild nashr etildi (417 dan 543 gacha), 1911-1916 yillarda esa sharqshunos Aleksandr Semenov rahbarligida 48 ta jild (544 dan 591 gacha) nashr etildi. 1939 yilda bibliograf E. K. Betger boshchiligida Turkiston to'plamining oxirgi uch jildi (592 dan 594 gacha) nashr qilingan. Bundan tashqari, turli davrlarda bir nechta ro'yxatlar va tarkib to'plamlariga kataloglar tuzildi.

Turkiston to'plamini tuzishdek mas'uliyatli ishni K. P. Kaufman taniqli bibliograf Vladimir Izmailovich Mejovga bejiz ko'rsatma qilib bermagan. XIX asrning ikkinchi yarmidagi rus bibliografiyasi arboblari orasida V. I. Mejov birinchi o'rinda edi. Qirq yillik faoliyati davomida, u Rossiyada yashagan o'z davrining bibliograflaridan hech biri qila olmaydigan ishni qilardi. Mejovning yuzdan ortiq bibliografik asarlarini o'z ichiga olgan adabiy merosi ko'plab fan sohalari bo'yicha keng adabiyot sifatida qo'llanilgan. Unga mustamlakachi ma'muriyat, Markaziy Osiyo va qo'shni mamlakatlarga tegishli barcha gazeta va jurnallarni, shuningdek, rus va xorijiy mualliflarning xuddi shu mavzudagi ilmiy asarlarini o'z ichiga olgan rasmlarni yig'ish taklifi bilan murojaat qilganligi ajablanarli emas edi. V. I. Mejov taklifga darhol javob qaytardi. U



shunday yozgan: «Turkiston deb atalgan ushbu mintaqani egallab olish Rossiya uchun katta ahamiyatga ega. Bu bizning sharqiy chegaralarimizni xavfsizlantiradi... lekin bu asosan biz uchun savdo-sotiqda juda muhimdir. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarimiz uchun Markaziy Osiyo bozorlarini ochib berdi. Tez orada bizning karvonlarimiz Hindistonga yetib borganda ishlab chiqargan mahsulotlarimiz o'rniga ular bizga Sharq xazinalarini olib kelishadi. Yaqin kelajakda Markaziy Osiyo orqali Hindistongacha temir yo'l qurish savdo aloqalarimizni yanada rivojlantiradi. Inglizlar tijorat manfaatlarini himoya qilib, ruslarning O'rta Osiyoga bo'lgan har bir xatti-harakatini sinchkovlik bilan kuzatmoqda. Ular Markaziy Osiyo nashrida nashr etilganlarning barchasini diqqat bilan kuzatib boradilar, bibliografiya va hokazo». To'plam tarixi haqida Mejov o'z maktublaridan birida shunday dedi: «1867 yilda K. P. Kaufman menga I. S. Idarov orqali Markaziy Osiyoga, xususan Turkiston mintaqasiga oid kitoblar va maqolalarning bibliografiyasini tuzishni taklif qildi. U bilan shaxsiy uchrashuvda men poytaxtdan shunday olislikda joylashgan Toshkentda bitta quruq sarlavhalar ro'yxati uning uchun hech qanday amaliy ahamiyatga ega bo'lmasligini ta'kidladim. Buning o'rniga men unga kitoblar va maqolalarni o'z ichiga olgan Turkiston to'plamini tuzishni taklif qildim. U roziligini bildirdi va birinchi marta tajriba sifatida men unga to'plamning 10 jildni Toshkentga yubordim, ular uchun men 1000 rubl miqdorida mukofot oldim. Bunday kutilmagan va oliyhimmatlik bilan berilgan mukofot meni ishinni kuchaytirdi va keyingi yillarda xuddi shu haq evaziga 20 jilddan 30 jildgacha junatdim. Va nihoyat, Turkiston o'lkasini K.P. Kaufman boshqargan keyingi yillarda men unga har yili 1000 rubl mukofot uchun 40 dan 50 jildgacha yetkazib berishga rozi bo'ldim».

Sankt-Peterburgda bo'lib, kitoblar va davriy nashrlarni kuzatib borish imkoniga ega bo'lgan Mejov Markaziy Osiyo va u bilan qo'shni mamlakatlarga tegishli bo'lgan barcha narsalarni yig'gan va to'plagan. U nafaqat asosiy materiallarni, balki unchalik muhim bo'lmagan materialarni ham to'plagan: «... Mintaqa haqida yozilganlarning barchasini o'z ichiga olgan kutubxona shubhasiz foyda keltirishi kerak. Ehtimol, To'plamga kiritilgan ba'zi maqolalar ahamiyatsizdir, ammo ahamiyatsizdek ko'ringan materiallar ham ma'muriy va iqtisodiy masalalarni yangicha yoritib berishi mumkin. Natijada, Turkiston to'plamini tuzishda men Markaziy Osiyo va, xususan, Turkiston o'lkasi haqida bitta ham maqolani e'tibordan chetda qoldirmadim».

Kaufmanga yo'llagan maktubida Mejov o'zi tomonidan tuzilgan Turkiston to'plamining ahamiyati haqida shunday yozadi: «... sizning rahbarligingizga berilgan hudud katta foyda keltirishi mumkinligiga bo'lgan to'liq ishonch, meni ushbu buyuk ishni tayyorlashga undadi. Umid qilamanki, siz bundan to'liq qoniqasiz. U nafaqat jurnal va gazetalarning ba'zi maqolalarini, balki butun Markaziy Osiyo va xususan Turkiston haqidagi alohida maqolalarni ham o'z ichiga olgan. Men bunday ishni markazdan uzoq bo'lgan Turkiston kabi mintaqa uchun o'ta zarur deb bilaman... Bundan tashqari, mening to'plamim orqali so'nggi yillarda Turkiston va Markaziy Osiyo haqida yozilganlarning hammasiga ega bo'la olasiz va siz turli xil afsona yoki ertaklarni hamda shaxslar haqidagi ma'lumotlarni, shaxsiy fikrlarni rad etishingiz mumkin».

Kaufman «Turkiston to'plami»ga katta ahamiyat qaratdi va uni juda qadrlab, «Turkiston to'plami»ni «bizning Markaziy Osiyo bilimlari ravnaqi va rivojlanishi uchun» juda muhim deb ta'kidladi. U ushbu to'plam Markaziy Osiyoni o'rganishni istaganlar uchun ajoyib material ekanligini qo'shimcha qildi.

Dastlab Kaufman birinchi o'n jildni shaxsiy kutubxona sifatida saqlab qoldi. 1876 yilda ular Turkiston jamoat kutubxonasiga o'tkazildi. Kaufman gubernatorligi davrida jami 250 jild tuzildi. 1882-1889 yillarda Chernyaev va Rozenbax gubernatorlari hukmronligi ostida yana 166 jild tuzildi. Shunday qilib, jildlarning umumiy soni 416 bo'lib, rus, fransuz, nemis, ingliz, italyan, ispan va lotin tillarida 4713 nomdan iborat edi. To'plamni tuzish bo'yicha xarajatlarning umumiy hajmi 23169 rublni tashkil etdi.

Turkiston to'plami odatda ikki qismga bo'linadi: birinchi qismda taniqli rus bibliografi V. I. Mejov (1830–1894) tomonidan tuzilgan 1 - 416 (1867–1887), ikkinchi qism - 417–594 jildlar mavjud. Turkiston to'plamining bunday bo'linishi juda tabiiy va, albatta, bu qismlar orasida yigirma yil ko'p vaqt borligi bilan izohlanadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, to'plam yaxshi sharoitda va mukammal tartibda saqlangan va Turkiston jamoat kutubxonasining boshqa kitoblari orasida eng ommabopi bo'lgan (masalan, 1903 yilda u o'quv zaliga 609 marta chiqarilgan (uni uyga olib ketishga ruxsat berilmagan)). 1898 yilda Turkiston to'plamlarini tuzilishini qayta tiklash masalasi ko'tarildi, ammo bu masala muhokama qilinishdan nariga o'tmadi. Faqat 1907 yilda kutubxonaning ishini yaxshiroq



boshqarish uchun 1876 yilda tashkil etilgan Kuzatuv qo'mitasining tashabbusi bilan (o'sha paytda u «Maxsus komissiya» deb nomlangan edi) bu katta va zarur ish boshlandi. Qo'mita "Turkiston to'plami"ni tuzishni qo'mita a'zolaridan iborat Byuroga topshirdi. Uning tarkibiga bibliograf N. V. Dmitrovskiy, etnograf A. A. Divayev, Turkiston jamoat kutubxonasi maslahatchisi bo'lib ishlagan I.P. Zikov va ko'ngilli ravishda yordam berishni xohlagan sharqshunos Y. F. Bonch-Osmolenskiylar kiritilgan.

Turkiston to'plamini tuzish uchun yiliga ming rubl sarflangan. Byuro to'plamning hammasi no'lib 127 jildini tuzdi. Unga 4000 rubldan ortiqroq mablag' sarflandi. To'plamni qayta tuzishda N. V. Dmitrovskiy asosiy ro'l o'ynadi.

Turkiston to'plamining qayta tuzilishidan keyin jildlar bilan tanishar ekanmiz, birinchi navbatda ularning nomlari o'zgartirilganini ko'ramiz. Xususan, birinchi tuzuvchi tomonidan berilgan nom qisqa va aniq nom bilan almashtirilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, N. V. Dmitrovskiy rahbarligida tuzilgan jildlar(417-543-jildlar) Mejoyning jildlaridan farq qilgan.

Ammo bu davrda tuzilgan to'plam hajm jihatidan ko'pligiga qaramay materiallarning nuqtai nazaridan, uning ko'p qirraliligi va to'planishi V. I. Mejoy tomonidan tuzilgan jildlardan ancha pastdir. Masalan, «1888 yildagi yarim batalyonning ovchi guruhining mashg'ulotlari» (426-jild) yoki «Ayollarning kelib chiqishi haqidagi hind afsonasi» (451-jild) sarlavhali maqolalarni Turkistonga hech qanday aloqasi yo'q. 430 va 431-jildlar «Русского инвалида» gazetasining Krasnovning Sibir, Manchuriya, Xitoy va Hindiston bo'ylab sayohati haqidagi parchalaridan iborat.

"Turkiston to'plami" uchun to'plangan barcha materiallar quyidagicha yozilgan: gazeta maqolalari qirqilgan, oq qog'ozga yopishtirilgan, jurnallar va kitoblardagi maqolalar tikilgan, shaxsiy varaqlar qog'oz varaqlariga yopishtirilgan. Faqat Turkiston to'plamida jurnal va gazeta parchalari o'n mingdan oshdi. Shu tarzda qayta ishlangan materiallar bosmaxonada bosilgan muqovoli sahifalar bilan ta'minlangan bir xil formatdagi hajmlarga bir-biriga bog'langan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Turkiston to'plami" Markaziy Osiyo va unga tutash bo'lgan mamlakatlar xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tarixi, etnografiyasi, bu hududlarning arxeologiyasi, geografiyasi, botanikasi va boshqa sohalari bo'yicha noyob va qimmatli ma'lumotlarni o'zida jamlagan. To'plam sahifalarini jildma-jild varoqlar ekanmiz, mintaqaning butun hayotini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati, ishlab chiqaruvchi kuchlarini, tarixiy o'tmishini o'rganish uchun boy manbalar hamda mintaqada istiqomat qilgan odamlarning hayoti, urf-odatlarini, ananalari va fe'l-atvori, harbiy tadbirlar, teatrlari, fathlar, ozodlik urushlari, shuningdek, tadqiqot ishlari bilan tanishamiz. "Turkiston to'plami" mintaqani o'rganish uchun mavjud bo'lgan eng keng qamrovli manba bo'lib, o'z davrida nashr etilgan va qo'lyozma materiallarni bir joyga jamlagan. Hozirda nashr etilgan ba'zi materiallar faqatgina ushbu to'plamda mavjud, chunki boshqa nusxalar urushlar va inqiloblar paytida yo'q qilingan. Shu sababli, "Turkiston to'plami" Turkiston tarixi bo'yicha izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muhim manba vazifasini bajarib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Фрадкина З. Л. «В. И. Межов (1830—1894)». Под ред. проф. А. Д. Эйхенгольца. М., Изд-во Всесоюзной книжной палаты, 1949 г., стр. 3.
2. Межов В. И. Туркестанский сборник систематический и азбучный указатель сочинений и статей на русском и иностранных языках», т. 1., СПб., 1878 г.
3. Касымова А. Г. «Туркестанский сборник». Ташкент: Фан, 1985 г.
4. Зияева Д.Х. "Туркестон тўплами" саҳифаларида илмий тадқиқотларга оид маълумотлар. Тошкент, 2018.



SHARQDA XAMSANAVISLIK AN'ANASI

Nishonova Yorqinoy Ruziboyevna
Marg'ion shahar 8-maktab
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
tel: +998 916628870

Annotatsiya: maqolada Sharqda xamsanavislik an'anasi va Nizomiy Ganjaviy dostonlarining badiiy-estetik xususiyatlari tadqiq etilgan. Xamsanavislik an'anasida umuminsoniy, milliy, ma'naviy va diniy qadriyatlar uyg'unlashgan holda talqin etilgan.

Kalit so'zlar: sharq, xamsanavislik an'anasi, doston, badiiy-estetik xususiyat, umuminsoniy qadriyatlar.

Sharq epik poeziyasi tarixi xamsachilik an'anasi bilan chambarchas bog'liq. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri VIII asrga yaqin vaqt davomida yuzlab javob dostonlarga ega bo'ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib "Xamsa" yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir. U 1170–1204-yillar oralig'ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib, "Panj ganj" ("Besh xazina") deb atala boshlandi va keyinchalik xamsa nomi bilan mashhur bo'ldi. Nizomiy beshligidagi birinchi doston "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi") deb atalib, 1180-yilda yaratilgan. Nizomiy bu dostonini g'aznaviylik hukmdori Bahromshoh (XII asr)ga bag'ishlaydi. "Maxzan ul-asror"ning vujudga kelishida XII asr klassigi Hakim Sanoiy "Hadiqat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar bog'i") dostonining ta'siri bor. Umuman, musulmon Sharqida falsafiy-didaktik yo'nalishdagi dostonlarning ibtidosi ham bevosita shu doston bilan aloqadordir.

Nizomiy beshligidagi ikkinchi doston "Xusrav va Shirin" deb atalib, taxminan 1181-yilda yozib tugallangan. Shoir bu dostonini saljuqiylar hukmdori To'g'ul II (1174-1194) topshirig'iga ko'ra yaratadi. Doston hajmi manbalarda 6139 baytdan 6500 baytgacha deb ko'rsatiladi. Dostonning asosini Madoyin shahzodasi Xusrav Parviz bilan Barda' malikasi Shirin o'rtasidagi murakkab sevgi sarguzashtlari tashkil etadi. "Xusrav va Shirin" an'anaviy muqaddimadan so'ng Madoyin hukmdori Xurmuz xonadonida Xusrav Parvizning tug'ilishi tufayli uyushtirilgan shodiyona tasviri bilan boshlanadi. Bola tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraydilar: u favqulodda kuch va g'ayrat, aql-idrok egasi bo'lib ulg'ayadi. Lekin shu bilan birga uning tabiatida yengiltaklik, beqarorlik ham mavjud edi. Doston zamona hukmdori To'g'ulshohning Nizomiy huzuriga chorlagani va uni taqdirlaganiga doir bob bilan xotima topadi.

Nizomiy beshligidagi to'rtinchi doston "Haft paykar" ("Yetti go'zal") 1197- yilda yozib tugallanadi. Doston 4600 baytdan iborat bo'lib, hukmdor Alouddin Ko'rpa Arslon (1174–1207) topshirig'i bilan yaratilgan. Manbalarda "Bahromnoma" deb ham yuritiladi. "Haft paykar" an'anaviy muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Asosiy qism Bahrom sarguzashtlarini o'z ichiga oluvchi qoliplovchi hikoya va yetti malika tomonidan aytilgan yetti qissadan tashkil topgan. Dostonda tas-virlanishicha, Bahrom sasoniy shoh Yazdigirdning yagona vorisi. Yazdigird o'g'lini munosib tarbiyalash uchun Yamandagi vassali Nu'mon qo'liga topshiradi. Bahrom yoshligidan qulon oviga o'ch bo'lib o'sadi. Shunga ko'ra u Bahrom Go'r (qulonchi) laqabini oladi. Yazdigird vafot etgach, Bahrom taxtga o'tiradi va mamlakatni adolat bilan boshqara boshlaydi. Bir kuni Bahrom Fitna ismli san'atkor kanizi bilan ovga chiqadi va Fitnaning da'vati bilan qulon ovlashda mahorat ko'rsatib, undan maqtov kutadi, lekin Fitna bu holat muttasil mashq qilish natijasi ekanligini aytish bilan cheklanadi. Bahrom g'azablanib, o'z sarkardasiga Fitnani o'ldirishni buyuradi. Lekin Fitna tadbir ishlatib, omon qoladi va o'zidagi jami zebziynatlarni sotib, sarkarda madadi bilan ko'shk qurdiradi. Yangi tug'ilgan buzoqni har kuni bir necha pillapoya ko'shk ustiga olib chiqib, mashq qildiradi. Bir kuni tasodif bilan ko'shk yonidan o'tib ketayotgan Bahromga o'z san'atini ko'rsatib, lol qoldiradi. Bahrom xatosini anglab yetadi va Fitnadan uzr so'rab, unga uylanadi. Dostonda Bahrom sarguzashti davomida malikalar qissalari keltiriladi va qissaxonlik tugagach, Bahrom sarguzashti yana davom etaveradi.

Nizomiy beshligidagi so'nggi – beshinchi doston "Iskandarnoma" deb atalib, ikki qism: "Sharafnoma" va "Iqbolnoma"dan iborat. Doston hajman 10500 bayt bo'lib, 1197–1204-yillar oralig'ida yozilgan. Doston uchun Sharq adabiyotida keng tarqalgan Iskandar Zulqarnayn timsoli bosh qahramon sifatida olingan. "Sharafnoma"da Iskandarning harbiy yurishlari va jahongirliги



tasvirlansa, “Iqbolnoma”da Iskandar donishmandligi va payg‘ambarligi bilan namoyon bo‘ladi. Dostonda keltirilishicha, Iskandar juda erta ota taxtiga o‘tiradi. Ko‘p janglarda ishtirok etib, mohir sarkarda va adolatparvar shoh sifatida shuhrat qozonadi. Uzoq-yaqindagi hukmdorlar undan qattol dushmanlarni yengishda yordam so‘raydilar. Iskandar o‘z tadbirkorligi bilan Chin va Hind mamlakatlarini yengib, insoniyat osoyishtaligiga xavf yetkazayotgan ya‘juj-ma‘jujlar ustidan g‘alaba qozonadi. U donishmand shoh sifatida o‘z zamonasining faylasuflari bilan doimiy muloqotda bo‘ladi, ular bilan olamning ibtidosi, intihosi, mamlakatni boshqarish qonun-qoidalari, muvaffaqiyat va inqirozga sabab bo‘ladigan omillar haqida suhbat quradi, o‘zining harakatlarini sarhisob qiladi. U qayerga borsa, dastlab davlat boshqaruv usuli, idora nizomlarining adolat talablariga muvofiqligiga e‘tibor qaratadi. Shoh-u gadoning so‘zlariga quloq tutadi, o‘z maslahat va tavsiyalarini aytadi. Umuman olganda, Nizomiy tasviridagi Iskandarning jahongirliги ilm-u donish, hikmat va aql jahongirligidir.

Xulosa qilib aytganda, Sharqda xamsachilik an‘anasida umuminsoniy, milliy, ma‘naviy va diniy qadriyatlar uyg‘unlashgan holda talqin etilgan.

Adabiyotlar:

1. Abdug‘afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. – T.: Adabiyot va san‘at, 1995.
2. Valixo‘jayev B. “Xamsa” yozish an‘anasiga Alisher Navoiyning munosabati // O‘zbek tili va adabiyoti.-1990.- № 1.
3. Oripova, G. (2021). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. Конференции, 1(2). <https://doi.org/10.47100/v1i2.206>
4. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120. <https://doi.org/10.23856/3215>
5. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. <http://doi.org/10.5281/zenodo.2582134> International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
6. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zYU Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
7. Is‘hoqov Yo. “Xamsa” poetikasiga doir //O‘zbek tili va adabiyoti.- 1986.-№ 1.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(8-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000